

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

VIEWS OF EASTERN THINKERS ON FAMILY RELATIONS

D. Fatidinova

Andijan State Pedagogical Institute, teacher

While studying the scientific and cultural heritage of Eastern thinkers, the rules of family life, the culture of interpersonal relations, the development of children, the relationship between men and women, and the formation of human qualities, which are described in them, are valuable ideas of the oral creativity of the people of the East, in particular, the Uzbek people. , we can see that it is a scientific and cultural heritage composed on the basis of the unity of the epic (Uzbek folk proverbs, tales, epics, legends, narratives). Abdurauf Fitrat said: "The happiness and dignity of every family depends on the internal discipline and harmony of this nation. Peace and harmony depend on the discipline of the families of this nation, and the country and the nation will be strong and orderly. If the population of a country weakens family relations with immorality and ignorance and allows indiscipline, then the happiness and life of this nation will be in doubt".[15]

OILAVIY MUNOSABATLAR HAQIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

D. Fatidinova

Andijon davlat pedagogika institute o‘qituvchisi

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o‘rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarning shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, eposining (o‘zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko‘ramiz. Oilada farzand tarbiyasiga to‘xtalib, Abdurauf Fitrat shunday degan edi: “Har bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli, tartibli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”.[15]

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma’rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o‘zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud. Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termizi ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmaddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir. Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o‘rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarning shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, eposining (o‘zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko‘ramiz.

Shaxsning kamol topishida oilaning yetakchi ta’siri bor. Oila tarbiyasining o‘ziga xos milliy xususiyatlari xamda tipik kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llarini, tarbiya samaradorligini oshirish omillarini tushuntirish, oila tarbiyasi, oiladagi tarbiya imkoniyati va pedagogik madaniyat xaqida tushunchalar beriladi. Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola xayotining dastlabki vaktlaridan boshlaboq, ota-onal oldida turgan asosiy maqsad va vazifadir, ya’ni ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan balki, ularning ijtimoiy burchi xamdir. Ma’lumki shaxsning qadriyati uning jamyatdagi tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jixatdan uning tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli tabiyki, ota-onal o‘z bolalarining tarbiyachisi xisoblanadi.

Rizouddin ibn Faxriddining «Oila» nomli risolasida «Bola tarbiyasi yomon niyat va qo‘pollik bilan emas, balki sabr-toqat matonat, mexribonlik, chidamlilik, shafqatu-sezgirlik bilan bo‘lishi kerak», kabi fikrlar yozib qoldirilgan.

Abu Ali Ibn Sino - oilaviy tarbiya to‘g‘risida shunday fikralr bildirgan. «Bolaning xulqini mo‘tadillikda saqlashga aloxida e’tibor berish kerak, unga esa bolani qattiqullik va qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish, xafalik va uyqusizlikdan saqlash orqali erishildi. Oilada bolaning ko‘z o‘ngida ota-onasi o‘z obro‘siga ega bo‘lsalar, tarbiya shunchalik samarali natijalar beradi. Ota-onal bir-birini sevsal, bir-biriga shodlik bag‘ishlasa, ularning bolalari xam ko‘pincha odamlarga mexr-oqibatli, diqqat-e’tiborli bo‘lib ulg‘ayishi avvaldan ma’lum. Ayniqsa o‘zbek oilasida ota juda qadim zamonlardanoq oila boshlig‘i xisoblangan. Shunga ko‘ra uning oddiylik, xalollik, qat’iylik kabi ijobiy

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

xislatlari xam boshqalarni ranjitadigan salbiy xususiyatlari xam bolaga o'tishi tabiiy xoldir. Ota-onal bo'lgan xar bir kishi oldida o'z obro'sini saqlash va buning uchun diqqat -e'tiborli bo'lish talab etiladi. Agar ota – ona aytib o'tilganlarga e'tibor va amal qilgan xolda o'z farzanadlarini tarbiyalasalar xayotda to'g'ri yo'lni tanlagan bo'ladilar. Oilada bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash ustida to'xtalganda, milliy ahloqning o'ziga xos xususiyatini ochib bermoq zarur. Milliy ahloq ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovdan o'tgan hayot saboqlari va o'git ko'rsatmalari jamuljamdir. Ana shu tufayli milliy ahloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avlodlardan-avlodlarga o'tib kelmoqda.

Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zamirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarining o'zaro munosabati haqida to'xtalib, irsiyat, muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh sog'lomligining birligi kabi masalalarni o'rtaga tashlaydilar. Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi va ularning amalga oshirish yo'llari haqidagi, oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarining ko'pgina jihatlarini qamrab oladi va ular muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi. Bu qarashlar o'z davrlaridan anchagina ilgarilab ketib bir necha asrdan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib, ma'naviy qadriyat sifatida bugungi kunda o'z qiymatini yo'qotmay kelmoqda, ular ijtimoiy va oilaviy tarbiya birligi haqidagi masalani ijobiy hal qilishga uringanlar, buni hozirgi zamon pedagogikasi ham to'la e'tirof etadi.

Bola psixik taraqqiyotida oilaning roli

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishda ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun umummilliy miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa bo'lib qolmoqda. O'z istiqboli, kelajagini o'ylagan har qaysi inson, xalq, millat, mamlakat o'z farzandlarining ma'naviy – ma'rifiy tarbiyasi haqida o'yashi va qayg'urishi kerak. Zero, buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur».

Bolalarni tarbiyalashda ota-onal, oila, məktəb, jamiyat a'zolarining ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuni inobatga olgan holda, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda ota-onaning, oilaning o'rni haqida so'z yuritamiz. Bolaning xarakteri, tabiat, tarbiyasi,

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

dunyoqarashi, atrofdagilarga munosabati oila sharoitida qaror topadi. Shuningdek, bola ma'naviyatini shakllantirish ta'lim-tarbiya tizimi bilan ham uzviy bog'liqdir. Bola tarbiyasini qachon boshlash lozim, uning tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berilish kerak, bu jarayonda oila va o'quv dargohining roli qanday? kabi savollar ko'p ming yillik tarix davomida insoniyatni o'ylantirib kelmoqda.

Ota-onal bolaning birinchi ustozlaridir. Bola ota-onasining hatti-harakatlarini ko'rib, ularni o'rganib ulg'ayadi. Bir olimning yoniga uch oylik chaqaloq bilan kelib, undan "bola tarbiyasini qachon boshlash kerak?", - deb so'raganlarida, olim: "o'n ikki oy kechikdingiz", deb javob bergen ekan. Ya'ni, tarbiyani bola tug'ilganidan keyin emas, balki homiladorlik davridanoq boshlash kerak. Bunda onaning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz shoiri va dramaturgi O. Goldsmit aytganidek, ayollar insoniyatning ilk murabbiylaridir. Zero, tug'ilmagan bolaning olamga nisbatan ishonch va ishonchsizlik hissi bolaga onadan kelib tushuvchi ma'lumotlar asosida shakllanadi. Onaning his-tuyg'ulari bola psixikasi va xarakterining shakllanishida yo ijobiy, yo salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tug'ilajak bola jismoniy rivojiga onaning hayot tarzi, ovqatlanish madaniyati, zararli odatlari bor yoki yo'qligi ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, agar ota yoki onada salbiy odatlar bo'lsa, bu ularning farzandlarida qaytalanadi. Bu odatlar bolaning jismoniy holatigagina emas, balki uning ruhiy-ma'naviy holatiga ham ta'sir qiladi, albatta.

Ota-onaning bolaga go'daklik chog'idan sevgi, mehr berishi, to'g'ri parvarish va tarbiya qilishi unda ishonch tuyg'usini shakllantiradi. Bu davrda ota-onal va farzand o'rtasida iliq, yoqimli taassurot uyg'onadi. Bola boshqalar bilan ham shunday munosabatga kirishadi. Bolaning o'ziga ishonishi, o'zini hurmat qilishi muhim bo'lib, ota-onal doimo uni tinglashi, uni rag'batlantirishi, unda sevgi, mehr, hurmat, sabr-qanoat va ishonch tuyg'ularini uyg'otishi lozim. Olimlar jamiyatda tez tushkunlikka tushadigan insonlarni o'rganib tahlil qilganlarida, ularning ko'philigi bolalik davrida yaqinlari tomonidan kam e'tibor berilgan yoki umuman e'tiborsiz o'sganliklari aniqlangan.

Bolani qattiq nazorat qilish, unga baqirish, yonida janjallahish, vaqtida ovqatlantirmaslik, atayin yig'latish – endigina ishonch tuyg'usi uyg'onayogan bolaga katta yomonlik qilish bilan teng. Natijada bola qo'rqaq, ichimdagini top, deydigan bo'lib qoladi. Kattalar buni sezmasliklari mumkin. Biroq, mutaxassislar fikricha, ota-onaning tez-tez janjallahishlari bolaning kasalliklarga oson chalinishi, yolg'on gapireshi va tartibsiz bo'lishining bosh sababidir. Farzand mакtabga ilk qadamini qo'yanidan boshlab, qiyinchiliklarni yengishga ishonishi lozim. Savollariga u tushunadigan tarzda javob berish kerak. Unga dalda bo'lish, qoqilganida o'rnidan turib, oldinga intilishni o'rgatish lozim. Shuningdek, ularga imkoniyat darajasini inobatga

International Multidisciplinary Scientific Global Conference on Education and Science

Hosted Online from Warsaw, Poland on October 10th, 2022.

www.conferencepublication.com

olgan holda topshiriqlar berish kerak. Bu haqda amaliy psixologiyada quyidagi fikr keltiriladi: “Odamning bironta faoliyatining muvaffaqiyat bilan bajarilishi, avvalo odamda bo‘lgan bilim saviyasi va malakasiga bog‘liqdir”. Insondagi malaka esa yillar davomida shakllanib boradi. Bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mustaqil O‘zbekistonning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bu maqsad yo‘lida katta ishlar olib borilayotgani ham sir emas. Yoshlar bilim olishga undalmoqda va ularga zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bolalarga yuragidagi tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalashlari uchun ko‘maklashish darkor. Tuyg‘ularini ifodalay olmagan bola o‘zini chorasiz his qiladi. Bolaning aytgan gaplari, so‘zlayotgan voqealari ota-onada uchun shunchaki oddiy gapdek tuyulsada, bola uchun e’tiborli va muhim bo‘lib ko‘rinadi. Farzandni vaqtida va e’tibor bilan tinglamaslik, vaqt o‘tishi bilan bola va ota-onada orasida jarlikni paydo qiladi. Hatto, begonalardek uzoqlashuvga sabab bo‘lib, bunday vaziyatda bolalarda jinoyat ko‘chasiga kirish yoki o‘z joniga qasd qilish kabi holatlar kuzatilishini ta’kidlash mihimdir. Olimlar o‘z joniga qasd qilishni ko‘pincha psixologik inqiroz bilan bog‘laydilar. Bu avvalo shaxsning ichki shaxsiy aloqalarini uzilishi, o‘zi taalluqli bo‘lgan ijtimoiy guruhdan begonalashuvi oqibatida paydo bo‘ladi. Har bir inson necha yoshda bo‘lishidan qat’i nazar “meni sevadilar” degan tuyg‘u bilan yashashni istaydi. Bolani tushunishda va qiyayotgan muammolarini hal qilishda uning gapirishiga qulay vaziyat yaratish, eshitish muhimdir. Bola so‘zini tamomlamasdan biron fikrni bildirish yoki qarshi fikr aytish noo‘rin. Bola o‘zini bezovta qilayotgan narsani tushuntirishda, tuyg‘ularini ifodalashda ba’zan qiynaladi. Shuning uchun suhbat chog‘ida unga dalda berishlarini xohlaydi. Bunday vaqtarda bolaga zarda qilmasdan, muloyimlik bilan so‘zlashish, gap orasida “shundaymi?”, “Ha, barakalla”, “shunday degin”, “qiziq, keyin nima bo‘ldi” singari dalda beruvchi so‘zlardan foydalanish zarur. Bu bilan bola o‘zining ishonchli suyanchi, ko‘makchisi, mehriboni borligini his qiladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, sog‘lom turmush tarzini kundalik hayot kechirishning asosiy mezoniga aylantirishga bog‘liq tushuncha va tasavvurlar oiladan boshlanadi. Bu g‘oyalarning xalqimiz qon-qoniga singib ketganligi eng avvalo oilalarda saqlanib kelayotgan ijobjiy an’analarda, ota-onadan farzandlarga singdiriladigan o‘gitlarda, qarindosh-urug‘chilik aloqalaridagi mehmonnavozlik va ushbu jarayonda orastalik va ozodalik tamoyillariga rioya etilishlarida, mahalla-ko‘yda rioya etiladigan tartib-qoidalar, xususan, ko‘chani, har bir xonadonni ozoda va sarishta saqlash odatlariga tayangan qo‘ni-qo‘sningchilik muomalalarida o‘z aksini topadi.